


## 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Iqtisodiyotda xizmatlar sohasi o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabilar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalariga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

### 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

#### Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi




#### Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'atlari

**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 8 881,8 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 1134,2 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,3 % ni tashkil etdi.



**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.














Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020-yilning yanvar-dekabr oylarida)

|  | Hajmi,<br>mlrd. so'm | O'tgan yilga<br>nisbatan o'sish<br>sur'ati, % da |
|--|----------------------|--|
| <b>Xizmatlar - jami</b>  | <b>8 881,8</b>       | <b>103,3</b>                                     |
| <i>shu jumladan:</i>   |                      |  |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari  | 500,4                | 108,7  |
| Moliyaviy xizmatlar  | 1 496,7              | 127,5  |
| Transport xizmatlari   | 1 668,4              | 99,9   |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari   | 1 561,2              | 105,5  |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari  | 191,9                | 98,3   |
| Savdo xizmatlari   | 2 911,7              | 99,7   |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar  | 227,9                | 94,8   |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar  | 425,8                | 113,3  |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar   | 175,8                | 87,4   |
| Ijara xizmatlari   | 198,2                | 118,5  |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar                          | 218,9                | 96,1   |
| Shaxsiy xizmatlar  | 516,2                | 92,9   |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 133,8                | 67,1   |
| Boshqa xizmatlar   | 216,1                | 96,6   |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi 32,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan

birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (18,8 %), moliyaviy xizmatlar (16,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (5,6 %) qayd etildi.


| Eng yuqori ulush  |                                       |        | Eng past ulush   |  |       |
|---|---------------------------------------|--------|--|--|-------|
|    | Savdo xizmatlari                      | 32,8 % |    | Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar  | 2,6 % |
|   |                                       | 33,6 % |  |  | 2,8 % |
|    | Transport xizmatlari                  | 18,8 % |    | Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari   | 2,5 % |
|   |                                       | 19,4 % |  |  | 2,7 % |
|    | Moliyaviy xizmatlar                   | 16,9 % |    | Boshqa xizmatlar                       | 2,4 % |
|   |                                       | 14,0 % |  |  | 2,6 % |
|   | Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 5,6 %  |   | Ijara xizmatlari                       | 2,2 % |
|   |                                       | 5,8 %  |  |  | 1,9 % |
|  | Shaxsiy xizmatlar                     | 5,8 %  |  | Yashash va ovqatlanish xizmatlari      | 2,1 % |
|   |                                       | 6,2 %  |  |  | 2,2 % |
|  | Ta'lim sohasidagi xizmatlar           | 4,8 %  |  | Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 2,0 % |
|   |                                       | 4,2 %  |  |  | 2,3 % |
|   |                                       |        |  | Me'morchilik sohasidagi xizmatlar      | 1,5 % |
|   |                                       |        |  |  | 2,3 % |

  Yanvar-dekabr 2019- y.  
  Yanvar-dekabr 2020- y.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,5 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'lmagan ulush Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar - 2,0 %, yashaah va ovqatlanish xizmatlari - 2,2 % ga to'g'ri keldi.

Yuqori o'sish savdo xizmatlari (32,8 %), transport xizmatlari (18,8 %), shuningdek moliyaviy xizmatlari (16,9 %) da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

**Transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi**




Avtomobil transport xizmatlarining ulushi 93,6 % ni tashkil etdi.

Omborxon va yordamchi transport xizmatlarining hajmi 6,1 % ni tashkil etdi.

Pochta va kuryerlik xizmatlarning ulushi 0,3% ni tashkil etdi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida yo'lovchilarni tashish katta ulushga ega.

**Transport xizmatlarining tashish turlari bo'yicha tarkibi**  
(2020-yil yanvar-dekabr oylarida)



2020-yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 73,6 % ga yetdi.


Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 26,4 % ni tashkil etdi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020-yilning yanvar-dekabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 32,8 % ni tashkil etib, bu 2 911,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

**Savdo xizmatlari tarkibi, % da**  
*(2020-yilning yanvar-dekabr oylarida)*



**Avtomobillar  
va mototsikllar ulgurji  
va chakana savdosi,  
jumladan, ularni ta'mirlash  
xizmatlarini qo'shgan holda**

**Ulgurji savdo xizmatlari  
(avtomobillar va  
mototsikllar savdosidan  
tashqari)**

**Avtomobillar  
va mototsikllar savdosidan  
tashqari chakana savdo  
bo'yicha xizmatlar**

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining 80,2 % iga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 14,6 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi.

### Moliyaviy xizmatlar

(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

**Moliyaviy xizmatlar hajmi 1 496,7 mlrd. soʻmni - tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida ularning hajmi 1 081,6 mlrd. soʻmga teng boʻldi.



**Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 16,9 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi 14,0 % ni tashkil etdi.

**Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini 415,1 mlrd. soʻmga koʻpayishi kuzatildi.**




**Moliyaviy xizmatlarning oʻsishi 27,5 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning oʻsish surʻati 159,9 % ga yetgan.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan toʻlovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash boʻyicha xizmatlari uchun toʻlanadigan haq hisobiga koʻra olinadi.



Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.



2020 yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 1496,7 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 127,5 % ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (92,0 %) tashkil etadi.


**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

2020-yilning yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 500,4 mlrd. so‘m darajasida belgilandi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o‘shish sur‘ati 108,7 % ga yetdi.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 5,6 % ni tashkil etdi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi**



Aloqa va axborotlash-tirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekom-munikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog‘i, yo‘ldoshli aloqa xizmatlari va bosh-qalar) egallab, 97,2 % ni tashkil etdi.

Axborot sohasidagi xizmatlar umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,4 % ni tashkil etadi.

Kompyuter programmalarini ishlab chiqarish xizmati aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.

Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,1 % ni tashkil etadi. Nashriyot xizmatlari aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 2,0 % ni tashkil etadi

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar


2020-yilning yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 425,8 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 4,8 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,3 % ni tashkil etdi.



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020-yilning yanvar-dekabr oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 98,3 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 191,9 mlrd. so'mga teng bo'lgan.


Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 2,1 % ni tashkil etdi.



2019-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan turar joy va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmi 20,4 mlrd. so'mga ko'paydi.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash** bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi**  
(2020-yilning yanvar-dekabr oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 83,6 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 16,4 % ni tashkil etdi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar**  
(2020-yilning yanvar-dekabr oylarida)


2020-yilning yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 175,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 2,0 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 87,4 % ni tashkil etdi.




**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida hududlar ulushini taqqoslanishi, % da**



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida Namangan shahrining ulushi yuqori - 45,3 %. Shu bilan birga, nisbatan yuqori ulush Chortoq (12,5 %), To'raqo'rg'on (10,0 %) va Kosonsoy (6,5%) tumanlarida qayd etildi.

Joriy davrda ushbu ko'rsatkichning ulushi nisbatan katta bo'lmagan hududlar Norin (1,3 %), Mingbuloq (1,9 %), Yangiqo'rg'on (2,6 %), Namangan t (2,8 %) va Uchqo'rg'on (2,9 %) tumanlarida qayd etildi

### Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2020-yilning yanvar-dekabr oylarida)



Xizmatlarning umumiy hajmida Namangan shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 36,1 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa tumanlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.


Shuningdek, eng katta ulush To'raqo'rg'on (6,9 %), Chust (6,9 %), Pop (6,7 %) va Uychi (6,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Mingbuloq (4,2 %), Norin (4,6 %), Yangiqo'rg'on (5,4 %), Uchqo'rg'on (5,6 %) tumanlarida kuzatildi.

**Ma'lumot uchun:** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Namangan shahrining ulushi 36,1 % ni tashkil etgan.

Mingbuloq tumanining ulushi esa eng past ekanligi - 4,2 % kuzatilgan.

**Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da**  
2020 yilning yanvar-dekabr oylarida



Ushbu davr mobaynida nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Mingbuloq (105,5 %), Norin (104,6 %), Uychi (104,2 %), Yangiqo'rg'on (103,9 %), Namangan t (103,8 %), Kosonsoy (103,7 %), Chortoq (103,6 %) va Uchqo'rg'on (103,5 %) tumanlarda qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish To'raqo'rg'on (100,1 %) va Pop (101,7%) tumanlarida qayd etildi

Ko'rilayotgan davrda, resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Namanagan shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3208,0 mlrd. so'mga yetdi.

## Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020-yilning yanvar-dekabr oylarida)

|                  | Hajmi,<br>mlrd. so'm | O'tgan yilga<br>nisbatan o'sish sur'ati, % da |         |
|------------------|----------------------|---|---------|
|                  |                      | 2020-y.                                       | 2019-y. |
| Namangan sh      | 3208,0               | 103,1   | 116,5   |
| <i>tumanlar:</i> |                      |   |         |
| Mingbuloq        | 373,4                | 105,5   | 100,1   |
| Kosonsoy         | 522,3                | 103,7   | 102,3   |
| Namangan t       | 515,3                | 103,8   | 114,1   |
| Norin            | 407,7                | 104,6   | 104,5   |
| Pop              | 592,8                | 101,7   | 113,7   |
| To'raqo'rg'on    | 614,5                | 100,1   | 102,5   |
| Uychi            | 535,6                | 104,2   | 109,8   |
| Uchqo'rg'on      | 495,7                | 103,5   | 105,7   |
| Chortoq          | 520,2                | 103,6   | 101,0   |
| Chust            | 613,4                | 104,1   | 109,0   |
| Yangiqo'rg'on    | 483,2                | 103,9   | 112,2   |



Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Namanagan (3 208,0 mlrd. so'm), Chust (613,4 mlrd. so'm) va To'raqo'rg'on (592,8 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3128,4 ming so'mga yetdi.


O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,2 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmi - 3 128,4 ming so'm

O'sish sur'ati, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan - 101,2 %

Hajmning o'sishi, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan - 343,4 ming so'mga

**Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so‘m**  
*(2020-yilning yanvar-dekabr oylarida)*



Ushbu xizmatlar hajmi ko‘rsatkichi hududlar o‘rtasida Chust tumanida 2297,5 ming so‘mdan Yangiqo‘rg‘on tumanida 2200,3 ming so‘mgacha bo‘ladi.

Chust tumanida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko‘rsatkichi nisbatan pastligi bu hududda aholi sonining yuqori ko‘rsatkichlariga bog‘liqligidir.

Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo‘limi

(69) 227-85-28